

O'SMIR YOSHDAGI O"QUVCHILARNING TA'LIM MUASSASASIDA DIOGNOSTIK VA KORREKSION FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Egamqulova Gulhayo Azamat qizi

Qashqadaryo viloyati Qarshi shahar

48-sonli umumiy o'rta ta'lim mактабининг

Oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

O'smir yoshdagi bolalar turli psixologik o'zgarishlarga duch kela boshlaydi. Ayniqsa, Oliy Ta'lim Muassasasidagi yoshlarda bu holatning borligi ajablanarlidir. Mamlakatimizda 1993-yilning 1-dekabr kuni 153 ta mamlakat "Bola huquqlari" to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilish yo'li bilan o'zlarining bolalar kelajagini muhofaza etishga tayyor ekanligini namoyon etdilar. Yuqoridagi konvensiyaga ko'ra barcha bolalar, shu jumladan, jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ham mehnat qilishi, ta'lim olishi va hayotda o'z o'rnini topib ketishi uchun unga bo'layotgan tazyiqlardan himoyalansh huquqiga egadirlar.

"Bola huquqlari" to'g'risidagi konvensiyaning 19-moddasiga ko'ra "Bola ota-oni yoki boshqa shaxslar tomonidan kamsitilishi, haqoratlanishi yoki xo'rланishi himoyalangandir". XX asrning 20-yillaridan beri Defiktologiya fani jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fan sifatida o'rganib kelinmoqda. Korreksion faoliyat esa, ayan alohida yordamga muhtoj, jismomiy va ruhiy kamchiliklari bor bolalarning psixafizeologik rivojlanishdagi xususiyatlarini o'rganadigan, ularning ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan fandir. Korreksion faoliyatni tashkil etishimizda biz pedagoglar o'smirlarning vaziyatidan kelib chiqqan holda diagnostik faoliyat olib borishimiz ta'lab etiladi. Bunda bizga yordam beradigan asosiy kuch o'smir yoshlarning ota-onasi va mahallasidir. Fqatgina ular bilan hamjihatlikda ishlaga holatdagina bu muammoning yechimini topishimiz osonlashadi.

Ruhiy va jismoniy kamchiligi bor bolalar anomal (yunoncha "odatdan tashqari", "noraso" degan ma'noni bildiruvchi "onomalos" so'zidan olingan) Ta'lim muassasasiga tashrif buyurga o'smirning kim ekanligini biz mashg'ulotlar jarayonida kuzatib bilib olamiz. Ko'pincha korreksion faoliyatni tashkil etishda guruhlarga bo'lish va tabaqalalashtirish g'oyasi ilgari suriladi. Ammo, biz pedagoglar o'smirlardagi ba'zi bir boshqalardan ajralib turadigan holatlarini kuzatish jarayonida payqashimiz lozim. Psixolog professor Vigotskiy shunday degan: "Anomal bolada nafaqat salbiy, balki ijobiy tomonlarini ham o'rganib aniqlab olish mumkin". O'smirlardagi turli xil o'zgarishlarni inobatga

olgan holda, XX asning dastlabki 10 yillarida psixologik diagnostika nazariyasi, so'ngi 10 yilliklarda esa pedagogik diagnostika nazariyalariga asos solindi. Ushbu nazariyalarning asosiy g'oyasi o'smirlarda namoyon bo'layotan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etish, tuzatishdir. Yuqoridagi holatlarga asoslangan holda shunday xulosaga kelish mumkinki, bu fanlarni o'qitish zarur ekanligini taqozo etmoqda. | Zamon shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda nuqsoni bor bolalarda o'rtasida ham turli musobaqalarni tashkil etish, limning hali zabit etilmagan cho'qqilarini zabit etishga undash bugungi dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.

Yurtimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor va imkoniyatlardan foydalangan holda ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, diagnostik testlar olib borish va inson qalbi buyukligini his etgan holda , korreksion faoliyat olib borish eng katta maqsad va vazifalarimizdan biri bo'lishi zarurdir. Bizga ma'lumki, jamiyatimizda har bir ijtimoiy bosqichda turli xil dunyoqarash va fe'l-atvorga ega yoshlar istiqomat qilib kelmoqda. Natijada, ruhiy va psixik ko'makka muhtoj qatlamda tarbiyalanayotgan yoshlar tomonidan turli ko'rinishdagi jinoyatchiliklar, o'g'irlik, kashandalik, daydilik kabi illatlarning yuzaga chiqishi va eng achinarlisi ushbu holat atrofdagilariga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qo'ymayotganligi bilan tashvishga solmoqda. Zero, biz har birimiz bu muammaoni hal etishda yuqoridagi fe'l-atvorga ega o'smirni "Sen shunaqasan" deb emas, balki " Sen yaxshi inson bo'lsan, seni yorqin kelajak kutmoqda, men senga ishonaman" kabi ilhomlantiradigan jumlalar bilan ularning daldaga muhtoj qalbiga zarba bermog'imiz kerak. Shu o'rinda yurtboshimiz " Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iboratdir " – degan edi. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assamblayasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan). Bu vazifani ado etish yo'lida nafaqat pedagog xodimlar, balki jamiyatdagi har bir shaxs bir tan-u bir jon bo'lib sobit turishi talab etiladi.

Faoliyatni tashkil etishda biz o'quvchilarni ulardagi holatga qarab diagnostik testlar olingandan so'ng , ulardagi aniqlangan kamchiliklarni quyidagi bosqichlar bo'yicha taqsimlab, ketma-ketlikda qadamma-qadam harakat qilmog'imiz kerak:

- Aqliy va psixik rivojlanishida nuqsoni bor o'smirlar;
- Nutqida nuqsoni bor o'smirlar;
- Eshitish qobiliyati buzilgan o'smirlar;
- Ko'rish qobiliyati buzilgan o'smirlar;

O'smirlarda yuqoridagi holatlar aniqlangandan so'ng, ularning ota-onalari bilan yaqindan suhbat olib borish va muntazam a'loqani o'rnatish, kelajagi uchun birqalikda harakat qilish zaruriyati tug'iladi. Mamlakatimizda yoshlar uchun amalga oishirilayotgan islohotlardan oqilona foydalanishimiz va buni bir yoqadan bosh chiqarmasdan amalga oshirib bo'lmasligini tushuntirish maqsadida joylarda turli targ'ibot-tashviqot tadbirlarini olib borishimiz kerakdir. Bugungi tahlikali zamonda turli zarali yot bo'lgan oqimlarga ruhiy va psixik nuqsoni bor o'smirlarning tez va juda oson ilakishib qolayotgani hech birimizga sir emas. Farzanddagi korreksion nuqson yoshligidayoq aniqlansa, ota-onasi bartaraf etish uchun harakat qilmog'I shart. Negaki, dono xalqimiz aytganidek, "Farzandning yomoni bo'lmaydi, danagidan mag'zi shirin". Agarda bu illatga qarshi o'z vaqtida chora ko'rilmasa, tasavvur qilib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Biz pedagoglar esa o'smirlarning ta'lim muassasasida diagnostik va korreksion faoliyatni tashkil etishda, avvalo, o'smirning fe'l-atvoriga, dunyoviy, diniy va ilmiy qiziqishlariga ota-onasi va vatanga bo'lgan muhabbatidagi o'zgarishga bo'lgan munosabati kabi tushunchalarini qay tarzda idrok etayotganligiga qarab dars mashg'ulotlarini tashkil etishimiz lozim.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish kerakki, befarqlik sabab bolalarimiz kelajagi yodmizdan chiqib qolyapti. Zero, e'tiborsizlik har qanday zamonda va faoliyatda eng katta dushmanimiz bo'lib kelmoqda. Har bir kishi o'zidagi loqaydlik tuyg'usini tarbiyalamas ekan muammolar yechimsiz, jamiyat esa rivojlanishsiz qolaveradi.